

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MOLIYA
STRATEGIYASI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA
OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

Kurbanbaeva Gulnoza Anvarbek qizi ¹

¹ *O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 25.04.2025

Revised: 26.04.2025

Accepted: 27.04.2025

KALIT SO'ZLAR:

*aksionerlik jamiyati,
xaraat, strategiya,
korporativ boshqaruv,
moliyaviy
texnologiyalar,
korporativ moliya.*

Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya strategiyasi ishlab chiqish va amalga oshirish yo'llari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KIRISH. Bugungi kunda jahon tajribasida mulkchilikning aksiyadorlik jamiyatlari shakli o'zida mulkdorlar va xaridorlar manfaatini mujassamlashtirgan holda faoliyat olib borishi bilan iqtisodiy barqaror va kelajak korxonalari sifatida tan olinib kelinmoqda. O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari asosan sanoat sohasida tashkil qilinib, bu shu sohadagi jami korxonalarining 1%ini ham tashkil qilmaydi, ammo mamlakatimizdagi sanoat sohasining eksport hajmining 20%ini o'ziga oladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ moliya strategiyasini ishlab chiqishda xarajatlarni o'rganilish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, u iqtisodiyot nazariyasi shakllanishi va rivojlanishi bosqichlaridagi maktablar namoyondalarining yondashuvlaridan boshlanganligini ta'kidlash lozim. Jumladan, siyosiy iqtisodiyotning klassik olimlari A.Smit absolyut xarajatlar, D.Rikardo nisbiy xarajatlar tushunchalarini kiritgan. Xarajatlar termini

bo'yicha ular bir birlik mahsulotga sarflanadigan iqtisodiy resurslarning jamoaviy o'rtacha sarfini, ya'ni alohida mahsulot birligining korxonalardagi o'rtacha qiymati yoki sohaga tegishli barcha korxonalardagi o'rtacha xarajatlarning nimaga tengligini tushuntirgan [1]. Markscha ta'limot konsepsiyasiga ko'ra "xarajat - bu kapitalist tovarining qiymati, yanada aniqrog'i ishlab chiqarish vositasi va ishchi kuchiga (doimiy va o'zgaruvchan kapitallarga) sarflanadigan xarajatlar summasidir" (Internet materiallari. www.experanto.mv.ru) deb keltirgan. Har ikkala ta'rifda ham xarajatga faqat mahsulot ishlab chiqarishga resurslar sarfi sifatida qaralgan.

19-asr oxirida bir qator konsepsiyalar yuzaga keladi. Avstraliyalik marjinalist nazariyotchi F.Vizer xarajatlarning sub'ektiv nazariyasini ishlab chiqadi. Ushbu nazariyaga asosan tovarning haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari jamoaning undan olishi mumkin bo'lgan manfaatining yuqori foydaliligiga teng deb keltirgan va shu nazariya asosida xarajatlarni minimallashtirish nazariyasi yuzaga kelgan [2].

J.M.Keynsning fikricha ishlab chiqarish xarajatlari foydalanilgan chiqimlar summasini, ya'ni tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i yoki aylanma kapital, tayyor mahsulot zaxirasini va omillarga xarajatlar - tadbirkorning ishlab chiqarishning boshqa omillariga sarflar summasini o'zida ifodalaydi (Dj.M.Keyns- ingliz iqtisodchisi, iqtisod teoriyasidagi keynschilar maktabi asoschisi.).

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xarajatlarni ilmiy tadqiq etishga e'tibor azaldan shakllanganligini va hozirgi kunda ham davom etayotganini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, hozirgi kunda rossiyalik iqtisodchi olimlar M.S.Kuzmina va B.J.Akimovalarning darsligida keltirilgan "zamonaviy adabiyotlarda ishlab chiqarishga xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanadigan chiqimlarning pul shaklidagi ko'rinishi sifatida aniqlanadi [3]. Xorijiy mualliflar aksiyadorlik jamiyatlarida xarajatlar kategoriyasini qisqa va aniq tavsiflagan: misol uchun, "xarajatlar - zarur tovar va xizmatlarning bahosi" yoki "xarajatlar deganda tovar va xizmatlarga to'lash uchun talab qilingan resurs yoki pullar tushuniladi" – kabi xulosalarini ko'rish mumkin. Shu bilan birga yana bir iqtisodchi olimlar E.A.Gomonko va T.F.Tarasovalarning [4] yozgan darsligida ham xarajatga shunday ta'rif bergan: "xarajatlar – bu aksiyadorlik jamiyatlarining daromad olishga qaratilgan xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda foydalanilgan resurslar yig'indisining puldagi o'lchaminio'zida aks ettiradi", deb aniqroq ta'rif keltirilgan.

Xarajatni qisqacha foydaga teskari proporsional deb hisoblasak, iqtisodchi olim Sh.M.Ergashevning [5] "xarajat – foydali natijalarga erishish maqsadida, aktivlarni sarflash hisobiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir" tarifini to'g'ri deb hisoblasak

bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari xarajatlarning mohiyatini ochib berishda iqtisodchi olim A.A.Abdug'anievning [6] xarajatlar bo'yicha "xarajatlar – ishlab chiqarish natijasida foyda olishning asosiy sharti, usiz xechqanday iqtisodiy faoliyat, jumladan ishlab chiqarish ham amalga oshmaydi" ta'rifidan xarajatlar foyda olishning manbai ekanligini anglashimiz mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlar faoliyatini amalga oshirishi davomida sarflangan iqtisodiy resurslarning puldagi ifodasi xarajatlar ekanligi yuqoridagi nazariyalarda o'z aksini topgan. Bundan shuni aniqlash mumkinki, aksiyadorlik jamiyatlar foydasi ushbu xarajatlarga teskari proporsional ravishda bo'lganligi sababli foydani oshirish xarajatlarni samarali boshqarishni talab qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari xarajatlarni boshqarish bo'yicha abxaziyalik iqtisodchi olimlar A.N.Asaul va M.P.Kvitsina yozishicha "xarajatlarni boshqarish - turli xil tashkiliy-huquqiy shakldagi korxona boshqaruv tizimining yo'nalish kaliti, chunki aynan shu yerda xarajatlar bo'yicha barcha aniq ma'lumotlar to'planadi, demak bu aniq foydaga erishishga asos qo'yilishini anglatadi" [7] – deb ta'kidlagan bo'lsa, rossiyalik iqtisodchi olimlar M.S.Kuzmina va B.J.Akimova "xarajatlarni boshqarish – yuqori iqtisodiy natijaga erishish vositasi sifatida o'z ichida ularning hisoblanishi, nazorati, kalkulyatsiyasi va byudjetlashtirilishini integratsiyalashtirish va o'zaro bog'lanish jarayonini namoyon etadi" [8] deb mazkur xarajatlarni boshqarishning o'ziga xos ahamiyatini ta'riflab o'tgan. Ye.I.Rubinshteyn "aksiyadorlik jamiyatlari xarajatlarni boshqarish – jamiyatga o'z faoliyatining iqtisodiy o'sishiga erishishga va bozorda raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradigan omil" [9] sifatida ta'riflab o'tgan. Yuqorida sanab o'tilgan ta'riflarda xarajatlarni boshqarishning turli xil xususiyatlari ifodalangan bo'lsa, M.M.Glazov va S.Yu.Chernikova "xarajatlarni boshqarish – aksiyadorlik jamiyatning yuqori iqtisodiy natijasiga erishish vositasi hisoblanadi" [10] – deb qisqa va aniq ta'rif berishga harakat qilgan.

Fikrimizcha, yuqoridagi olimlarning xarajatlarni boshqarish bo'yicha ta'riflarini ilmiy tahlil etgan holda, quyidagi ta'rifni shakllantirish mumkin "aksiyadorlik jamiyatlari xarajatlarni boshqarish – xarajatlar rentabelligiga erishish va xarajatlarning pasayishiga intilish jarayoni". Keng ma'noda xarajatlarni boshqarishning mohiyati aksiyadorlik jamiyatlari resurslarining qaerda, qachon va qancha miqdorda sarflanishini bilish, qaerda, nima uchun va qancha miqdorda qo'shimcha moliyaviy resurslarning zarurligini prognoz qila olish, foydalaniladigan resurslardan maksimal foyda olishni bilish, qisqacha aytadigan

bo'lsak, iqtisod qilishni va maksimal foyda olishni bilish mahoratidir.

Iqtisodchi olim G.A.Shavkun samaradorlik to'g'risida shunday deb ta'kidlaydi: "Samaradorlik – barchamizga ma'lumki boshqariluvchi tizim va boshqaruvchining birgalikda ishlashi jarayonini va tizimining, ya'ni, boshqaruv jarayoni komponentlarining birgalikdagi harakati natijadorligini ifodalaydi [11].

A.A.Agarkovning izohlashicha, boshqaruv samaradorligi aniq boshqaruv tizimining natijaviy faoliyatini son va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha nisbiy hususiyatidir [12]. Samaradorlikni boshqaruv organining rejalashtirilgan natijaga moliyaviy, mehnat, moddiy resurslar va boshqa xarajatlardan optimal foydalanilishida, ya'ni, boshqaruv sub'ekti va ob'ektlarining son va sifat ko'rsatkichlarida ifodalanishida ko'rishimiz mumkin. Shu bois xarajatlarni boshqarish samaradorligi va uni baholash muammolari yuzaga chiqarib keladi. Ushbu muammo bo'yicha izlanishlar olib borgan olimlar P.V.Ivanyuta va O.P.Lugovskayalarning ta'kidlashicha, xarajatlarni boshqarish samaradorligini baholashda mahsulot sotishdan tushimning hajmi bilan baholash zarur [12]. Aksiyadorlik jamiyati xarajatlarni boshqarish maqsadiga qanchalik erishganligi uning samaradorlik ko'rsatkichida o'z ifodasini topadi va baholandi.

Mavjud boshqaruv samaradorligini baholashning nazariy va amaliy yondashuvlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. boshqaruv samaradorligining iqtisodiy ko'rsatkichlari;
2. korxona va jamiyat maqsadlarini birlashtirishni ta'minlaydigan ichki va tashqi ijtimoiy siyosat samaradorligi;
3. o'z-o'zini tartibga solish tizimini boshqarish samaradorligi;
4. axborot tizimining samaradorligi.

Xarajatlarni boshqarishning mikrodarajadagi ijtimoiy samaradorligini baholashda quyidagi qo'rsatkichlarni e'tiborga olish zarur:

- korxonalarda xodimlarning qo'nimliligi;
- o'rtacha ish haqi hajmi;
- jarohat olish darajasi, ish vaqtining yo'qotilishi;
- ishchilarning malakasini oshirish.
- ish sharoiti va boshqalar

Aksiyadorlik jamiyatlarida xarajatlarni boshqarishning makrodarajada ijtimoiy samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha baholaniladi:

- ifloslovchi vositalarni tashlash;

- ifloslangan suvlarni ochiq suv havzalariga oqizish;
- utilizatsiyalangan chiqindilar;
- atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari va boshqa ekologik xarajalar.

Rossiyalik tadqiqotchi I.A.Sыnkovning fikricha aksiyadorlik jamiyatlarida xarajatlarni boshqarish samaradorligini baholashda tizimning dinamik va samarali funksiyalashtirilganligi inobatga olinadi [13].

Iqtisodchi olim A.A.Ismagilovning ta'kidlashicha, mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish samaradorligini nisbiy aniqlashning koeffitsientli usulini taklif qilgan. Buning uchun bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlarining nisbiy koeffitsienti hisoblab chiqilishi lozim va shu asosda xarajatlarni boshqaruv samaradorligi baholaniladi [14].

Aksiyadorlik jamiyatlarda xarajatlarni boshqarish funksiyasini bajarish samaradorligini baholash, ya'ni xarajatlarni boshqarish tizimini rivojlantirish darajasini baholashga e'tibor berilishi zarur. Sababi, amaliyotda mavjud ishlab chiqarish aksiyadorlik jamiyatlarining xarajatlarni boshqarish funksional tizimi tahlil qilinganida, muammolar har bir funktsiyani alohida baholashini ko'rish mumkin. Mahsulot tannarxini boshqarish masalasida samaradorlikka kompleks harakatlarni amalga oshirib borish natijasiga qarab erishish mumkin. Bunda fikrimizcha, xarajatlarni boshqarishning funktsional tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, rivojlantirish darajasini baholay olishimiz mumkin. Bu darajani baholashda menejmentni baholash modeli olimlar D.V.Maslov, P.Vatson, M.Chilishi tomonidan taklif qilingan bo'lib, bu modelning mohiyati xarajatlarni boshqarishning funktsional tuzilishini baholashda ekspert xulosasidan foydalanishni ilgari surgan [15]. Bunda beshta asosiy mezon bo'lib, ular yana baholashda aniqlik kiritilishi uchun kichik mezonlarga ajratiladi. Xarajatlarni boshqarishning funktsional tuzilishini baholashda boshqaruvni rejalashtirish (bashorat qilish), tashkillashtirish, motivatsiyalash, nazorat va koordinatsiyalash funksiyalaridan foydalaniladi. Asosiy besh funktsiya to'rt kichik funktsiyalarga ajratilgan bo'lib, ular 0-4 ball bilan baholanadi. Ushbu xolatda kichik funktsiyalar xarajatlarni boshqarish talablari asosida yaratilgan bo'lib, kanchalik ball yuqori bo'lsa, kichik funktsiyalar shunchalik yuqori amalga oshirilganligini bildiradi. Xarajatlarni boshqarishning samaradorligini baholashda ham umumiy tizimning baholash mezonlaridan kelib chiqib baholaniladi. Ya'ni 1 ball – boshqaruv umuman mavjud emas, 2 ball – samarasiz, 3 ball samaradorlikka yaqinlashmoqda, 4 ball samarali. Ammo bu usulda boshqaruv faoliyati jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar va sarf-xarajatlarga kam e'tibor

berilgan.

Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlari xarajatlarini boshqarish samaradorligini baholashda uning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv apparati hajmining kattaligi, amalga oshirishi lozim bo'lgan funksiyalar hisobiga uning boshqaruv faoliyati xarajatlarning ortib borayotganiga e'tibor qaratish zarur. Bu xarajatlar qay darajada o'zini oqlayotgani va xarajatlarni samarali boshqarish tadbirlari qanchalik iqtisodiy resurslarning tejallishiga olib kelinganligiga e'tiborni qaratish lozim. Biz tomondan taklif qilayotgan aksiyadorlik jamiyatlari xarajatlarini boshqarish samaradorligini baholash usuli aynan shu jihatlarni e'tiborga olgan holda taklif qilingan.

Xarajatlarni to'g'ri boshqarish o'z navbatida aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirish va zaxirasini mustahkamlash imkonini yaratadi, uning naqadar samarali boshqarilishini baholash xarajatlarni boshqarish usullari metodikasiga tayaniladi. Shu maqsadda olib borilgan izlanishlar natijasida, xarajatlarni boshqarishning bir nechta usullari mavjudligi aniqlandi.

Xarajatlarni boshqarish usullarini nazariy jihatdan tahlil qilish, ularni evolyusion jihatlarni o'rganish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Agarda 1-jadvalga e'tibor bersak turli davrlarda yaratilgan xarajatlarni boshqarish usullari turlicha tavsifga ega. Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, xarajatlarning boshqarish nazariyasi rivojlangan sari uning usullari ham rivojlanib, murakkablashib borgan.

Ammo bu usullarning yuzaga kelishi o'tgan asrga to'g'ri kelsa ham hozirgi kunda amaliyotda foydalanilib, o'z samarasini berib kelmoqda.

M.Sh.Ergashev o'z tadqiqotlarida mahalliy amaliyotimizga kirib kelgan "Direkt-kosting" va "Standart-kosting" tizimlarining qishloq xo'jaligi hisobi va tahlilini olib borishdagi afzalligini ta'kidlab o'tgan [16].

1-jadval. Xarajatlarni boshqaruv usullari evolyusiyasi

Yil	Asoschisi	Mazmuni
1933	G.Emerson, Ch.Garisson	"Standart-kost" me'yordan og'ishlar bo'yicha xarajatlarni boshqarish.
1936	D.Xarrison	"Direkt-kosting" - mahsulot tannarxini doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga ajratib hisoblash.
1960	X.Toshiro	"Tarket-kosting" – maqsadli tannarx bo'yicha xarajatlarni boshqarish.

1970	R.D.Mak- Ilxattan, R.A.Xauell	“Just-in-time” - xarajatlarni ishlar grafigi va me’yorlaridan og’ishlar bo’yicha o’z vaqtida qaror qabul qilish
1980	M.Imai, T.Ono	“Kayzen-kosting” – mahsulot ishlab chiqarish bosqichida xarajatlarni sekin-asta kamaytirish.
1988	R.Kuper, R.Kaplan	AVS - egri xarajatlarni funksiyalar talab qilgan mahsulotlar bo’yicha taqsimlash.
1999	Dj.Shank, V.Govindar adjan, K.Druri	Xarajatlarni strategik boshqarish-strategikpozitsiyalashuv, qiymatlar zanjiri, xarajatlarni shakllantiruvchi omillarni tahlil qilishga asoslangan.
1999 va hozirgi kundacha	A,Asaul, Y.Monden, T.Tanaka	Boshqarish xarajatlari konsepsiyasi (tannarxni pasaytirish va foydani oshirish).

A.Sh.Toshpulatov o’z ilmiy ishlarida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida urug’chilikka ixtisoslashgan fermer xo’jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar tannarxi hisoblanishini takomillashtirish bo’yicha jahon amaliyotida qo’llanilayotgan “JIT” hisob tizimini joriy etish natijasida mahsulot tannarxini 10% ga pasaytirish imkoni yaratilganligini asoslab bergan [17].

Korxona xarajatlarini boshqarishning samarali instrumentlaridan biri “Standart-kost” usuli hisoblanib, uning asosida xarajatlarni o’rnatilgan me’yorlar bo’yicha va ulardan og’ishlarini hisoblash va nazorat qilish tamoyili yotadi.

Ishlab chiqarishni konsentratsiyalash, texnologiyalarni takomillashtirish va tashkillashtirish, ishchi kuchi mehnati va moddiy resurslarni me’yorlashtirish, ishlab chiqarishni operativ boshqarish, xarajatlarni operativ nazorat qilishning zarurligi va tannarxni tartibga solish “standart-kost” tizimini ishlab chiqishga va tarqalishiga sabab bo’ladi.

Xarajatlarni me’yoriy aniqlash usuli XX asr boshlarida paydo bo’lgan bo’lib, F.Teylor tomonidan taklif qilingan menejment tamoyillaridan biri bo’lgan va G.Emerson tomonidan rivojlantirilgan. Xom ashyo va ishchi kuchidan foydalanishning “yagona eng yaxshi yo’l”ini aniqlash uchun me’yorlar (standartlar) belgilab oldi. Standartlar ishning xom ashyo va ishchi kuchiga talabini minimumga borishini rejalashtirish uchun axborotlar bilan ishlashni ta’minladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Yadgarov Ya.S. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. M.: 2004.
2. Internet materiallari. www.books.google.ru
3. M.S.Kuzmina B.J.Akimova. Upravlenie zatratami predpriyatiya (organizatsiya). Ucheb. pos. Moskva- 2015g.310str.
4. E.A.Gomonko T.F.Tarasova. Upravlenie zatratami predpriyatii. Uchebnik. Moskva-2016g. 314str.
5. Ergashev.Sh.M. Davr xarajatlari hisobi va tahlili. Dis. Toshkent-2008y. 117b.
6. A.A.Abdugʻaniev.Koʻp ukladli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish xarajatlari, ularni hisobga olish, mahsulot tannarxini hisoblash va tahlili. Dis.Toshkent-1998y.
7. Kuzmina M.S., Akimova B.J. Upravlenie zatratami predpriyatiya (organizatsiya). Ucheb. pos. Moskva-2015. 310 str.
8. Rubinshteyn Ye.I. Upravlenie zatratami. Ucheb. pos. Surgut-2004. 149 str.
9. Glazov M.M., Chernikova S.Yu., Upravlenie zatratami (новые подходы). Monogr. Sankt- Peterburg-2009. 169 str.
10. Shavkun G.A. Podxod k otsenke effektivnosti funkcionirovaniya sistema upravleniya zatratami promyshlennogo predpriyatiya. Vestnik VGU. Seriya: Ekonomika i Upravlenie. 2017. №1.
11. Agarkov A.A. Effektivnost upravleniya: kak yee izmerit, otsenit i dostich. Volgograd. 2018.
12. Ivanyuta P.V va Lugovskaya O.P. Upravlenie resursami i zatratami. Uchebnoe posobie. Kiev. 2008. 320 str.
13. Сынков I.A. Otsenka effektivnosti sistema upravleniya zatratami predpriyatiya. Vestnik Voronejskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universiteta. Voronej. 2010.
14. Ismagilova A.A. Otsenka effektivnosti upravleniya proizvodstvennymi zatratami v selkoxozyaystvennykh predpriyatiyax. Almata. 2017.
15. Maslov D.V., Watson P., Chilishi M. Funktsionalnaya otsenka menedjmenta: novaya model dlya sovershenstvovaniya sistema upravleniya. Kachestvo. Innovatsii. Obrazovanie. 2005. №2. 15–22 str.
16. Ergashev M.Sh. Davr xarajatlari hisobi va tahlili. Dis. T., 2008.
17. Toshpulatov A.Sh. Urugʻlik paxta xom ashyosi yetishtiruvchi fermer xoʻjaliklarida xarajatlar hisobini takomillashtirish. Dis. T., 2012.